



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI HAY'ATI MAJLISINING BAYONI

2023 yil «21» avgust

№ 01-06/15

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi:

A. Sa'dullayev – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori

Ishtirok etganlar:

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hay'ati a'zolari, Agentlikning markaziy apparati boshqarma va bo'limlari, hududiy boshqarmalari boshliqlari, Yoshlar kelajagimiz jamg'armasi ijro etuvchi direktori, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti rahbariyati, mas'ul xodimlar, mahallalardagi yoshlar yetakchilari

Majlis o'tkazish joyi:

Yoshlar ishlari agentligi ma'naviyat zali, videokonferensaloqa orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar)lardagi studiyalar

Hay'at majlisi raisi kun tartibini muhokamaga qo'ydi va kun tartibi Hay'at a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

KUN TARTIBI:

2023-yil birinchi yarim yillikda yoshlar bilan ishslash, ularning muammolarini hal etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda bu borada kelgusidagi ustuvor vazifalar to'g'risida

(Sa'dullayev, Ablayarov, Kattaxanova, Jalilov, Poyonov, Sattarov... Sa'dullayev)

Hay'at yig'ilishida hay'at tarkibining barcha a'zolari ishtirok etayotGANI munosabati bilan yig'ilish vakolatli hisoblanadi.

Hay'at yig'ilishida asosiy e'tibor Yoshlar ishlari agentligi tizimida joriy yilning birinchi yarmida amalga oshirilgan ishlar, muammo va kamchiliklar tanqidiy tahlil qilinib, kelgusidagi ustuvor chora-tadbirlar, xususan, barcha darajadagi rahbar va mas'ul xodimlarning ustuvor vazifalariga qaratildi.

Respublikadagi barcha mahallalarda yoshlar yetakchilari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, yoshlarning muammolarini o‘rganish, hal etish va ularning hayotda o‘z o‘rnini topishiga zarur sharoitlar yaratish bo‘yicha bir qator amaliy ishlar qilindi.

Shu bilan birga, ayrim **muammo va kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yildi:**

Birinchi, joriy yilning birinchi yarim yilligi yakunlari bo‘yicha **173 ta** mahallalardagi yoshlar yetakchilari faoliyati “**qizil” toifada** baholandi.

Ikkinci, hududlarda “**qizil”** toifadagi yoshlarga biriktirilgan rahbarlar Respublika komissiyasining o‘rganishiga qadar **11 873 nafar** yoshlar (3 %) bilan uchrashuvlar o‘tkazmagan, biriktirilgan yoshlarning **251 mingta** murojaatlaridan **55 406 tasi** (27 %) hal etilmagan.

Yil boshidan buyon yoshlar yetakchilari lavozimidagi kadrlarning qo‘nimsizligi bo‘yicha eng yomon ko‘rsatkich **Toshkent shahrida 206 ta** (585 nafardan 35 %), **Namangan viloyatida 182 ta** (788 nafardan 23 %) va **Farg‘ona viloyatida 241 ta** (1 062 nafardan 22 %)ni tashkil etmoqda.

Misol uchun, **Bektemir tumanidagi** 18 nafar yoshlar yetakchilaridan 13 nafari (72,2%), **Davlatobod tumanidagi** 28 nafar yoshlar yetakchilardan 13 nafari (46,4%), **Farg‘ona shahridagi** 73 nafar yoshlar yetakchilardan 33 nafari (45,2%) turli xil sabablarga ko‘ra o‘z lavozimini tark etgan.

Yoshlar yetakchilarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shart-sharoit yaratish masalalarining tahliliga ko‘ra **9 439 nafar** Yoshlar yetakchilarning **5 785 nafariga** alohida xona, **3 654 nafariga** umumiyligi xona ajratilgan, **8 640 nafar** yoshlar yetakchilari mebel jihozlari bilan ta’minlangan. Biroq, **799 nafar** yoshlar yetakchilariga **mebel jihozlari** hamda **70 nafariga** kompyuter jamlanmalari ajratilmagan.

Misol uchun, **Toshkent shahri** Mirobod tumanida **39 nafar** yoshlar yetakchilariga **kompyuter jamlanmalari bugungi kunga umuman ajratilmagan** bo‘lsa, **Surxondaryo viloyati** Muzrabot tumanida **11 nafar** (“Mustaqillik”, “Obod Turmush”, “Muzrabot darvoza”, “Anorzar”, “At-Termiziy”, “Darband”, “Yangier”, “Mehnatobod”, “Shaffof”, “Chegarachi”), **Oltinsoy tumanida 6 nafar** (“Jilibuloq”, “Qiziltepa”, “Nurafshon”, “Mo‘minqul”, “Do‘g‘oba”, “Jobu”), **Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida 10 nafar** (“Qo‘rg‘ontosh”, “Guliston”, “Oybek”, “Bo‘ston”, “Oydin yo‘li”, “Vatanparvar”, “Darxon”, “Farovon”, “Yangihayot”, “Sarchashma”), **Kasbi tumanida 4 nafar** (“Istiqlol”, “Xo‘jahayron”, “Nazartepa”, “Qoratepa”) yoshlar yetakchilariga tuman hokimligi tomonidan **kompyuter jamlanmalari umuman ajratilmagan**.

Shuningdek, birligining **Andijon viloyati Andijon shahri** (78 ta), **Asaka** (77 ta), **Baliqchi** (66 ta), **Buloqboshi** (37 ta), **Bo‘ston** (25 ta), **Jalolquduq** (63 ta), **Izboskan** (63 ta), **Marxamat** (48 ta), **Oltinko‘l** (59 ta), **Paxtaobod** (67 ta), **Ulug‘nor** (24 ta) va **Ho‘jaobod** (39 ta) tumanlarida jami **646 nafar** yetakchilariga xizmat planshetlari shu kunga qadar ajratib berilmagan.

“Besh tashabbus olimpiadasi”ning **birinchi bosqichi** (ko‘chalararo-mahalla) **124 ta** mahallalarda tashkil etilmagan. Jumladan, **Farg‘onada 29 ta, Toshkent shahrida 22 ta, Xorazm viloyatida 13 ta, Surxondaryo viloyatida 12 ta, Toshkent viloyatida 10 ta, Andijon viloyatida 8 ta, Qashqadaryo va Sirdaryo viloyati hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 7 tadan, Namangan viloyatida 4 ta, Jizzax viloyatida 3 ta va Navoiy viloyatida 2 ta** mahallalarda besh tashabbus olimpiadasi loyihalari **umuman o‘tkazilmagan.**

Tuman (shahar)lar misolida tahlil qilinganida Xorazm viloyati Yangiariq tumanida jami 39 ta mahalla bo‘lib shundan **10 ta (“*Chiqirchi*”, “*Oqmachit*”, “*Yangiariq*”, “*Ulug‘bek*”, “*Kattabog*”, “*Arboblar*”, “*Qo‘ng‘iroq*”, “*Soburzon*”, “*Tagan*” va “*Killovit*” mahallalari), **Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumanida 4 ta** (“*Sayram*”, “*Bahor*”, “*Olimlar*” va “*Geofizika*” mahallalari), **Uchtepa tumanida 4 ta** (“*Sharq yulduzi*”, “*Yusuf Sakkociy*”, “*Ko‘kcha oqtepa*” va “*Zulfizar*”) hamda **Yashnobod tumanida 4 ta** (“*Moxirlar*”, “*Fazogir*”, “*Fidoyilar*” va “*Boyqo‘rg‘on*”) mahallalarida besh tashabbus olimpiadasi loyihalari **o‘tkazilmagan.****

Hududlarda besh tashabbus tadbirlarining sifatli tashkil etilmaganligi, targ‘ibot va nazorat tadbirlari amalga oshirilmaganligi sababli yakuniy reyting natijalariga ko‘ra **Jizzax viloyati 19 ta** (*4 ta oltin, 5 ta kumush va 10 ta bronza*), **Andijon viloyati 28 ta** (*5 ta oltin, 9 ta kumush va 14 ta bronza*) va **Sirdaryo viloyati 20 ta** (*5 ta oltin, 10 ta kumush va 5 ta bronza*) medallar jamg‘arib, **eng past natijani qayd etgan.**

“Yoshlar daftari”dagi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha, **Jizzaxda 1 364 nafar, Toshkent viloyatida 354 nafar, Buxoroda 286 nafar, Xorazmda 207 nafar** 2022 yilda daftarga kiritilgan yoshlarga hanuzgacha amaliy yordam ko‘rsatilmagan.

Bundan tashqari **2023 yil 1 chorakda** daftarga kiritilgan yoshlardan **Andijonda 5 944 nafar, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 1 487 nafar, Farg‘onada 1 144 nafar, Surxondaryoda 949 nafar, Namanganda 945 nafar, Toshkent viloyatida 936 nafar** yoshlarga oradan uch oy o‘tgan bo‘lsada amaliy yordam ko‘rsatish choralari ko‘rilmagan.

“Yoshlar daftari”ga kirish uchun yoshlar tomonidan qilingan murojaatlarning Qashqadaryoda **23 tasi**, Toshkent viloyatida **17 tasi**, Andijonda **14 tasi** **bir oydan buyon ko‘rib chiqilmagan.**

Shuningdek, **Qashqadaryoda 594 ta, Buxoroda 555 ta, Samarcandda 530 ta** murojaatlar doimiy ravishda **bir oydan ortiq vaqt davomida o‘rganib chiqilmagan.**

Hududiy “Yoshlar daftari” jamg‘armalariga Qashqadaryoda **8,2 mlrd so‘m, Namanganda 1,4 mlrd so‘m, Farg‘onada 4,3 mlrd so‘m va Toshkent viloyatida 2,1 mlrd so‘m** mablag‘ ajratilishi kerak bo‘lsada **umuman mablag‘ ajratilmagan.** **Xorazm 2 mlrd so‘m, Navoiy 2,4 mlrd so‘m, Andijon 1 mlrd so‘m, Qoraqalpog‘iston 250 mln so‘m** **kam mablag‘ ajratgan.**

Bundan tashqari, To‘raqo‘rg‘on (2,6 %), Sergeli (3,6 %), Arnasoy (7,6 %), Sirdaryo (7,9 %), Chortoq (10 %), Zarbdor (10,4 %), Olmazor (11 %), Xiva (11,1 %), Gurlan (11,3 %), Sho‘rchi (13,6 %), Tuproqqala (14,2 %), Bekobod (14,5 %), Narpay (14,6 %) tumanlarida belgilangan mablag‘lar (*budjetning orttirib bajarilgan qismidan 15 %*) **yeterli darajada ajratilmagan.**

Shaxmat bo‘yicha “Yoshlar ishlari agentligi kubogi” besh bosqichda tashkil etilgan bo‘lsada, biroq Uchtepa tumani **“Vatanparvar”** mahallasida, Yangi hayot tumani **“Yangi hayot”** mahallasida, Yakkabog‘ tumani **“Shodlik”** mahallasida, Toshkent tumani **“Qizg‘aldoq”** mahallalarida musobaqaning **mahalla bosqichi o‘tkazilmagan.**

Shuningdek, musobaqada ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tgan yoshlar soni bo‘yicha tumanlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, **Qorovulbozor tumani** (84 nafar), **Sergeli tumani** (133 nafar), **Yakkasaroy tumani** (182 nafar) **Xonobod shahri** (155 nafar), **Qonliko‘l tumani** (157 nafar)da targ‘ibot ishlari yetarlicha tashkil etilmagan.

Shundan so‘ng, Agentlik direktori o‘rinbosarlari F.Ablayarov hamda D.Kattaxanova, hududiy boshqarma va tuman (shahar) bo‘lim boshliqlarining hisoboti eshitildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan ma’ruza hamda bildirilgan fikr va mulohazalar asosida Yoshlar ishlari agentligi hay’ati

QAROR QILADI:

1. Yoshlar ishlari agentligi direktori o‘rinbosari F.Ablayarovning “2023-yil birinchi yarim yillikda yoshlar bilan ishslash, ularning muammolarini hal etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari hamda bu borada kelgusidagi ustuvor vazifalar to‘g‘risida”gi axboroti ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 2-yarim yillik uchun mo‘ljallangan ish rejasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Faoliyatida jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘ygani, o‘z vazifasiga mas’uliyatsizlik bilan yondashgani, tizim xodimlari o‘rtasida jamoaviy muhitni buzganligi, rahbarlik faoliyatini to‘g‘ri tashkil etmaganligi sababli Agentlikning **Sergeli tuman** bo‘limi boshlig‘i M.Nosirov, **Yangihayot tuman** bo‘limi boshlig‘i I.Jodiqov, **Yangiyo‘l tuman** bo‘limi boshlig‘i Sh.Abduganiev, **Urgut tuman** bo‘limi boshlig‘i M.Burxonov, **Paxtachi tuman** bo‘limi boshlig‘i E.Sanaqulov, **Yangiariq tuman** bo‘limi boshlig‘i T.Sapaev, **Andijon tuman** bo‘limi boshlig‘i X.Jo‘raev, **Farg‘ona tuman** bo‘limi boshlig‘i B.Azimov, **Qarshi shahar** bo‘limi boshlig‘i J.Po‘latov va **Termiz shahar** bo‘limi boshlig‘i J.Saloxitdinovlarga **“Ogohlantirish”** berilsin.

4. Agentlikning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari boshliqlari 10 kun muddatda mahallalardagi yoshlar yetakchilarining kompyuter jamlanmalari va moddiy-texnik baza bilan ta’minlanish darajasini o‘rgansin hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tuman (shahar) hokimliklariga rasmiy xat yuborsin.

5. Agentlikning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari boshliqlari “Tashabbusli budget” loyihasida mahallalardagi yoshlar yetakchilari imkoniyatidan foydalaniib, targ‘ibot ishlarini tashkil etish orqali yoshlar infratuzilmalarini rivojlantirish choralarini ko‘rsin.

6. Davlat xaridlarini tashkil etish va xo‘jalik bo‘limi (I.Ziyodilloyev) **10 kun muddatda** Agentlikning tuman (shahar) bo‘limlarida kompyuter jamlanmalari hamda moddiy-texnik bazaga bo‘lgan ehtiyojni o‘rganib, hududlarga aniq hisob-kitoblar asosida kerakli mablag‘ ajrtish bo‘yicha taklif kirlitsin.

7. Besh tashabbus loyihalarini amalga oshirish va muvofiqlashtirish bo‘limi (Sh.Olimov), **Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari** bilan birgalikda:

- **15 kun muddatda** besh tashabbus olimpiadasi doirasida tanlov va sport musobaqalari yakunida taqdirlanmasdan qolgan g‘olib va sovrindorlarning nizom bo‘yicha taqdirlash;

- mahallalardagi yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, to‘garaklar, maktablardagi kutubxonalar, sport zallari faoliyati, yoshlarga yaratilgan infratuzilmalar faoliyatini tahlil qilib, bu boradagi faoliyatni rivojlantirish;

- besh tashabbus olimpiadasining 2-mavsumida loyiha va tanlovlarni yuqori saviyada tashkil etish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini tashkil etish choralarini ko‘rsin.

8. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish bo‘limi (A.Alimov) **Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari** bilan birgalikda “Jasorat maktabi” o‘quv-yig‘inida ishtirok etgan yoshlarning keyingi hayoti, ularning bandligi, jinoyat ko‘chasiga kirmasliklari uchun bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etilayotgani yuzasidan doimiy monitoring olib borsin.

9. “Yoshlar daftari” tizimini muvofiqlashtirish bo‘limi (M.Manasov)ga:

- **Agentlikning Qashqadaryo, Namangan, Farg‘ona, Xorazm, Navoiy, Andijon, Toshkent viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi** boshqarma boshliqlari bilan birgalikda “**Yoshlar daftari**” hududiy jamg‘armasiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan mablag‘larni ajratish yuzasidan hududiy hokimliklarga rasmiy xat yuborish choralarini ko‘risin.

- 2-chorak yakunlari bo‘yicha barcha hududlarda hududiy jamg‘armalarga mablag‘ o‘tkazish choralarini ko‘rsin;

- “**Yoshlar daftari**”da qolayotgan **145 ming** nafar yoshlarga ko‘mak berish choralarini ko‘rish vazifalari topshirilsin.

10. Mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va metodologik ta'minlash bo'limi (J.Choriyev) Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari bilan birgalikda “Yoshlar balansi”ni to‘liq shakllantirib, doimiy tarzda har bir mahallada yangilab borish mexanizmini joriy qilsin.

Bunda, har kuni mahalladagi yoshlar yetakchisi elektron platformasida balans ma'lumotlarini qayta ko'rish bo'yicha majburiy ogohlantirish tizimini joriy qilsin;

- Yoshlar yetakchilari tomonidan norasmiy sektorda band bo'lgan yoshlarni rasmiy sektorga o'tkazish, xususan, ularni o'zini-o'zi band qilgan shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha targ'ibot ishlarini jadallashtirish choralarini ko'rsin.

11. Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko'maklashish bo'limi Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari bilan birgalikda:

- tasdiqlangan “**Yoshlar bandligi dasturi**” ijrosi bo'yicha biriktirilgan mas'ullarning javobgarligini oshirish, dasturga kiritilgan yoshlarning bandligini ta'minlash choralarini ko'rsin.

- besh tashabbus olimpiadasi doirasida sektor, tuman shahar va viloyat darajasida tashkil etilgan “Kasblar tanlovi” loyihasi g'oliblarini taqdirlash maqsadida ajratilgan mablag'larning maqsadli ishlatilganligini, tanlov g'oliblariga nizomda belgilangan sovg'alar olib berilganligi va egasiga yetib borganligi yuzasidan monitoring ishlarini olib borish va aniqlangan holatlar yuzasidan axborot kirtsin.

12. Ta'lim muassasalaridagi yoshlar bilan ishslash, volontyorlikni rivojlantirish va yoshlarga oid istiqbolli g'oyalarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi (U.Sattarov) **Mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va metodologik ta'minlash bo'limi (J.Choriyev)** bilan birgalikda xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha “Ibrat farzandlari”, “Ibrat tillari oromgohi” kabi loyihalalar hamda xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) to'plagan yoshlarga imtihon topshirish xarajatlari qoplab berilishi yuzasidan targ'ibot tadbirlarini har bir mahalla kesimida tashkil etsin.

13. Ta'lim muassasalaridagi yoshlar bilan ishslash, volontyorlikni rivojlantirish va yoshlarga oid istiqbolli g'oyalarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi (U.Sattarov) yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan intellektual o'yinlar va loyihalarni ommalashtirish, shuningdek, barcha ta'lim muassasalari kesimida “Zakovat” intellektual o'yinlarini tashkil etish choralarini ko'rsin.

14. Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari agentlikdan yuborilayotgan barcha turdag'i xat-hujjalarning bajarilishi, nomenklatura hujjalari yuritilishi, ijro intizomi bo'yicha viloyat apparati hamda tuman (shahar) bo'limlari xodimlari ishtirokida tanqidiy yig'ilish o'tkazsin hamda yig'ilish natijalari yuzasidan Yoshlar ishlari agentligiga ma'lumot taqdim etsin.

15. Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (B.Aliboyev) **Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari** bilan birgalikda tizimdag'i kadrlar qo'nimsizligi sabablarini chuqrur tahlil qilsin hamda yuqori malakali kadrlar zahirasini shakllantirish va ularni tizimga jalb qilish choralarini ko'rsin.

16. Moliya-iqtisod bo'limi (J.Rasulov)ga hududlarga ajratilgan mablag'larni maqsadli va asosli sarflanishi yuzasidan o'rganish, nazorat-taftish ishlarini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

17. Agentlikning hududiy boshqarma hamda tuman (shahar) bo'lim boshliqlari mahallalardagi yoshlar yetakchilarini lavozimga olish va ozod qilish bo'yicha Mahallalardagi yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasiga rasmiy xat yuborgan holda kelishishi majburiy ekanligi yuzasidan rasman ogohlantirilsin.

Yuqoridagi tartibga rioya etmasdan, o'zboshimchalik bilan mahallalardagi yoshlar yetakchilarini lavozimdan ozod etgan rahbarlar intizomiy jazo chorasi qo'llanilishi qat'iy etib belgilansin.

18. Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (B.Aliboyev) **Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari** bilan birgalikda tizimdagи yoshlar yetakchilari lavozimiga qo'yish va ozod qilish masalalariga hududlardagi Kadrlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassislarni mas'ul etib belgilasin.

19. Davlat xaridlarini tashkil etish va xo'jalik bo'limi (I.Ziyodilloyev) **Agentlikning hududiy boshqarma boshliqlari** bilan birgalikda **15 kun muddatda** huddlardagi mavjud "Yoshlar markaz"lari faoliyatini qayta ko'rib chiqib, kelgusida barpo etilishi belgilangan markazlar bo'yicha taklif kirtsins.

23. Mazkur bayon ijrosini nazorat qilish Agentlik direktori o'rinosi F.Ablayarov, Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi B.Aliboyev, Axborot-tahlil va ijro nazorati bo'limi bosh mutaxassisi U.Sadikov zimmasiga yuklansin hamda **har oy yakunida** Hay'at bayoni ijrosi yuzasidan Agentlik direktoriga axborot kiritib borilsin.

**Yoshlar ishlari agentligi
direktori**

A. Sa'dullayev

